



HISTORY OF FOLK APPLIED ARTS IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE ANALYSIS AND HISTORIOGRAPHY

Feruza Suyarova
independent researcher
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: folk applied arts, historiography, cultural heritage of Uzbekistan, pottery, jewelry, art history, national crafts, comparative analysis, aesthetic values, traditional art.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: This article examines the formation, development and specific features of the history of folk applied arts in Uzbekistan on the basis of comparative analysis. It analyzes the role of pottery, jewelry, embroidery, woodcarving, ganchkori and other traditional arts in socio-cultural life, their aesthetic value and significance in art history, which have continued from ancient times to the present day. It also examines the historiographical aspects of folk applied arts, methods of approach and the main principles of scientific research based on various historical sources.

O'ZBEKİSTONDA XALQ AMALIY SAN'ATI TARIXI: QIYOSIY TAHLİL VA TARIXSHUNOSLIGI

Feruza Suyarova
mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalq amaliy san'ati, tarixshunoslik, O'zbekiston madaniy merozi, kulolchilik, zargarlik, san'at tarixi, milliy hunarmandchilik, qiyosiy tahlil, estetik qadriyatlar, an'anaviy san'at.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududida shakllangan xalq amaliy san'ati tarixining shakllanishi, rivojlanishi va davrlar kesimida o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil assosida yoritilgan. Unda qadimdan to hozirgi kungacha davom etgan kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, ganchkori va boshqa an'anaviy san'at turlarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni, estetik qadriyati va san'atshunoslikdagi

ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, turli tarixiy manbalar asosida xalq amaliy san'atining tarixshunoslik jihatlari, yondashuv metodlari va ilmiy izlanishlardagi asosiy tamoyillar ko'rib chiqilgan.

ИСТОРИЯ НАРОДНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ИСТОРИОГРАФИЯ

Феруза Суярова

независимый исследователь

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Народно-прикладное искусство, историография, культурное наследие Узбекистана, керамика, ювелирное дело, История искусств, национальные ремесла, сравнительный анализ, эстетические ценности, традиционное искусство.

Аннотация: В данной статье на основе сравнительного анализа освещены особенности формирования, развития и разреза эпох истории народного прикладного искусства, сложившегося на территории Узбекистана. В нем анализируется роль керамики, ювелирных изделий, вышивки, резьбы по дереву, ганчкори и других традиционных видов искусства в социокультурной жизни, эстетическая ценность и значение в искусствоведении, которые сохраняются с древних времен до наших дней. Также были рассмотрены историографические аспекты народного искусства на основе различных исторических источников, методы подхода и основные принципы в научных исследованиях.

Kirish. Har bir tarixiy voqeа hodisaning o'ziga xos tarixshunosligi bo'lganidek, xalq amaliy san'ati va uning tarixi ham tadqiqotchilarining izlanishlarida o'z aksini topgan. Mavzuning tarixshunosligi tahlili shundan dalolat beradiki, O'zbekiston xalq amaliy san'atining mustaqillik yillarida rivojlanishi tarixinining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan maxsus ilmiy adabiyot mavjud emas.

Ammo O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda boshqa masalalar qatori amaliy san'ati masalasi ham umumiy tarzda tahlil qilingan. Tadqiq etilayotgan mavzuga oid e'lon qilingan ishlarni mazmun mohiyatidan kelib chiqib, uch guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga sovet davri adabiyotlari kiritiladi. M.F.Gavrilova, V. Balkov, S.M. Dudin, B. Nikiforov, A.A.Semyonov, O.A. Suxareva, B.I. Veymarn, B. Desyatnikov, Y.Ponomarev, YE.M. Peshshereva, B.V. Veyrman, M.A. Bekjonova kabilarning asarlarida O'rta Osiyo xalqlari xalq amaliy

san'atiga oid juda qimmatli ma'lumotlari umumlashtiriladi. Shuningdek, ushbu asarlarda o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarish jarayonlari tarixiga oid ma'lumotlar ham keltiriladi. Asarlarda hunarmandchilik markazlari, o'zbeklarning an'anavyi hunarmandchiligi turlari, u bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonlari, hunarmandlarning uyushmalari, xususan, kulolchilik, misgarlik, zarduzlik, zargarlik buyumlarini taylorlash jarayoni, xom ashyo mahsulotlari, ish qurollari, shakllari, bezaklari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Mualliflarning asarlarida O'rta Osiyoning turli shaharlarida hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari, xalq amaliy san'atining gilamduzlik, zarduzlik, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik buyumlarini ishlab chiqarish sirlarini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Asosiy qism. O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda turli yillarda tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya a'zolarining alohida o'rni bor. 1957 yildan Qashqadaryo vohada faoliyat yuritgan sobiq SSSR FA Etnografiya instituti hamda 1963 yildan boshlab esa ToshDUNing maxsus ekspeditsiyasi (KATE) faoliyati natijasida to'plangan moddiy manbalar va ular tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'lka tarixining turli sohalari va davrlariga oid qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

N.A.Avedova, P. Zohidov, L.A. Jadova, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, N.S. Novosyolova, R.G.Muqminova, S.M.Mahkamova, B.X.Karmisheva va boshqalar faoliyati natijasida yaratilgan asarlarda ham O'rta Osiyoning turli hududlarida, xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi madaniy markazlari, xo'jalik turlari, hunarmadchilikning turli yo'nalishlarida erishilgan yutuqlar to'g'risida hikoya qilinadi. Shuningdek, asarlarda uy sharoitida ip-gazlama, ipakli, yarim ipakli va teri mahsulotlaridan mato va ko'n tayyorlash jarayoni, ularni bo'yash usullari hamda ushbu jaryonida ishtirok etuvchi hunarmandlarning vazifalari va yaratilgan buyumlarning san'at asari sifatidagi o'rni masalalari ta'riflanadi.

T.A.Faxretdinova o'z asarida O'zbekistonning milliy amaliy san'ati namunalari, ularning kelib chiqish tarixi, bu san'at turining avloddan-avlodga o'tib kelayotganligi masalasini san'atshunos sifatida yortib beradi. T.A.Abdullayev o'z tadqiqotida XIX-XX asrlarda O'zbekiston xunarmandchiligining rivojlanish bosqichlarini muzey materiallari (suratlar) orqali o'rgangan. S.N.Shokirova sovet Turkistonida xunarmand-kosibchilikni xukmron mafkura nuqtai nazaridan olib berishga harakat qildi[1].

Tarixshunoslik fani sovet davrida mafkuraviy ta'sir, siyosiy tuzumi manfaatlariga muvofiq yaratildi. Bu jarayonlar mavjud adabiyotlar tahlilida yaqqol ko'rindi. Mualliflar asosiy e'tiborni hukmron partiya "g'alabasi" targ'ibotiga qaratdi. Sovet davri asarlarini o'rganish asosida paydo bo'lgan ikkinchi xulosa esa masalaning siyosiy-mafkuraviy jihatlari bilan bog'liq edi. Xalq

amaliy san'ati masalasida ham milliylik, an'anaviylik usullari rad etildi, ma'naviy jabhani sovetlashdirish kabi masalalar asarlarning siyosiy mazmunini tashkil etdi. Bunday salbiy holatlarga qaramasdan yuqorida zikr etilgan asarlarning ko'pchiligidagi hozirgacha muhim ahamiyatga ega bo'lgan nazariy xulosa, umumlashma fikrlar mavjudki, bularning barchasi ushbu tadqiqotlarning qadrini doimo sezdirib turadi. Asosiysi mualliflar asarlarida xalq amaliy san'ati sohasidagi o'zgarishlarni to'la aks ettirishga harakat qilgan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mavzu bo'yicha mustaqillik yillarda e'lon qilingan ishlar ikkinchi guruhg'a kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq amaliy san'at sohasiga jiddiy e'tibor qaratib, bir qator asarlarida mazkur sohalarni qayta tiklash va rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar xususida o'z fikr va mulohazalarini bayon etib keldi. O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritgandan keyingi davrda xalq amaliy san'ati tarixiga bag'ishlangan ilmiy asarlar va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalar majmuasi o'zbek xalq moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatiga ega. Chunki ushbu ilmiy asarlar yangi nazariy metodologiya, yangi tarixiy tadqiqot usullari, yangicha yondoshuvlar asosida yaratilgan. Ayniqsa, S.Bulatovning asari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda xalq amaliy san'atining har bir sohasi to'g'risida tahliliy materiallar beriladi. O'zbek xalqi amaliy bezak san'ati, xusan, hunarmandchilikning XX asr oxirlarigacha yetib kelgan turlari, ularda saqlanib qolgan qadimgi bezak turlari, yangi elementlar xususidagi fikrlar bayon etiladi.

O'zbek xalqining, jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida yashovchi o'zbeklarning an'anaviy kiyimlari shakllanish tarixi va transformatsiyasi S.T.Davlatova tomonidan mukammal o'rganiladi[2]. Muallif tomonidan vohada ishlab chiqarilgan to'qimachilik maxsulotlari, mato ishlab chiqarish usullari, kiyimlarning shakllanish tarixi, vohaning o'ziga xos kiyim- kechaklari, taqinchoqlari bilan bog'liq an'analar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bir joyga to'plandi. O'zbek milliy kiyimlari tarixi B.Matboboyev, G.Maytdinov[3], I.Ahrorov[4], M.Ashrafiy[5] kabi tadqiqotchilar tomonidan yozilgan bir qator ilmiy maqolalarda ham o'z aksini topdi. Lekin ularda faqat o'zbek milliy kiyim-kechaklar tarixi yoritilgan bo'lib, boshqa hunarmandchilik turlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilmaydi.

Qashqadaryo vohasi madaniy markazlari tarixi G.Taniyeva izlanishlarida o'z aksini topdi. Muallif o'z tadqiqotda vohaning muhim madaniy markazlari, aholisining kasb-kori, hunarmandchiligi bilan bog'liq tarixiga alohida e'tibor qaratadi[6].

O'zbek xalq amaliy san'atining ajralmas qismi bo'lgan kashtachilik va do'ppido'zlik to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar I.Bogoslovskaya, L.Letveyeva[7], E.Gyul kabilarning ilmiy asar va maqolalarida o'z aksini topdi. Xusan, I.Bogoslovskaya. L.Letveyeva tomonidan

yaratilgan asarda o‘zbek xalq an’anaviy do‘ppido‘zlik san’ati, undagi lokal va etnik xususiyatlar, farqlar, xususan, bir qator markaziy shaharlarda yaratilgan do‘ppi turlari, shakllari, bezaklari, tikish usullari, turlari kabi o‘ziga xosliklar va O‘rta Osiyo mintaqasiga xos bo‘lgan umumiyliliklar chuqur tahlil etilgan. San’atshunos olima E.Gyul[8] esa o‘zbek xalq an’anaviy kashtachiligi tarixiga oid bir qator ilmiy maqolalarida soha tarixi, jumladan, Qashqadaryo vohasi kashtachiligi, uning o‘ziga xosliklari va boshqalar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Bundan tashqari, E.Ismoilova, Sh.Baratova[9], Sh.Abdullahayeva[10], Q.Jumayevlar[11] o‘z tadqiqotlarida o‘zbek kashtachiligining umumiyl tomonlarini yoritishga harakat qilganlar. Lekin ularda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari kashtachiligi tarixiga oid ma’lumotlar kam uchraydi.

Natija va muhokamalar. Tarix va san’atshunoslik sohasi izlanuvchilari O‘zbekiston, xususan, janubiy viloyatlar xalq amaliy san’atining o‘ziga xos jihatlari, sohadagi mavjud muammolarni o‘rganish bo‘yicha dissertatsiya ishlarini ham himoya qilmoqdalar. Mavzu tarixshunoslida U.Qilichev, G‘.Haydarovlarning nomzodlik dissertatsiyasi alohida o‘rinni egallaydi. Muallif mustaqillik yillarda mamlakatimizda milliy hunarmandchilik sohalarini qayta tiklash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mintaqalarda milliy hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ustoz-shogird maktablarining tashkil etilishi, hunarmand ustalarning respublika ko‘rik tanlovlari o‘tkazilishi kabi masalalarni tadqiq etadi.

Mustaqillik davri tom ma’noda ilm fan rivoji uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilgan davr bo‘ldi. Hozirgi zamon tadqiqotchilariga oldiga bir tomondan sovet tuzumi davriga oid eski qarashlarni yangicha tahlil etish vazifasini qo‘ygan bo‘lsa, boshqa tomondan, mustaqillik davridagi madaniy xususan, xalq amaliy san’ati rivojlanishning tarixiy, nazariy jihatlarini ilmiy asosda o‘rganishni zaruriy hol sifatida ko‘ndalang qilib qo‘yildi.

O‘zbekiston xalq amaliy san’ati xorijlik mutaxassislar e’tiborini ham kuchli jalb etib keldi. Bu turdagи adabiyotlar uchinchi guruhga kiritiladi. Mustaqillik yillarda hunarmandchilik bilan bog‘liq san’at turlarining tarixi qator tadqiqotchilar asarlarida o‘z aksini topdi. Masalan, Gabriele Keller tadqiqotlarida o‘zbek san’ati an’analari o‘ziga xos fotosuratlari aks ettiriladi[12]. Fotosuratlarda O‘zbekistonda hunarmandchilikning tikuvchilik va to‘quvchilik yo‘nalishiga oid namunalari o‘rganilib, o‘zbek ayollarining yuksak mahorati aks ettiriladi. O‘zbekistonda zardo‘zlik san’atining nozik qirralari oolib beriladi.

Xorij tadqiqotchilaridan B.Vollenveber, P.Franke larning izlanishlarida esa O‘zbekistonda gilamdo‘zlik markazlari haqida ma’lumotlar umumlashtiriladi. Respublikaning turli hududlarida Gilamduzlik san’atining o‘ziga xos jihatlari va yutuqlari o‘rganiladi. Mualliflar Farg‘ona vodiysi, Nurota, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston vohalaridagi Gilamduzlik an’analari to‘g‘risida

ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqotchilar Gilamduzlikning qadimgi julkurs va boshqa turlari, sholcha va paloslarning qo'lda to'qilish jarayonlari, ularning xalq tomonidan qadrlanishi haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi[13].

Xorij tadqiqotchilaridan A.U. Pope[14] ham o'z asarida O'zbekistonda Gilamduzlik san'atining nozik qirralari haqida fikrlarini bayon qildi. Tadqiqotchi Marg'ilon ipakchilari, Xorazmnинг Madir qishlog'i hunarmandlari, Rishton, Buxoro, Samarqand kulollari, Toshkent, Qo'qon va Xiva naqqoshlari haqida o'z fikrlarini bayon qildi. Shuningdek, usta hunarmandlar faoliyati va hayot sharoitlari to'g'risida ham hikoya qiladi.

AQSH tadqiqotchilaridan B. Makleod va B.Mayxev lar ham o'zbek hunarmandlari faoliyatini o'rgandi. Ular Rishton kulolchiligi va Marg'ilonda ipakchilik sohasi va uning tarixi haqida hikoya qildi[15]. Xorij mualliflari aksariyat hollarda Markaziy Osiyo hunarmandchiligini umumiylar tarzda o'rgandi. Shuningdek, mintaqaga xalqlari san'at asarlarining alohida xususiyatlari haqida ma'lumotlarni tahlil etishga harakat qilganlar. Ular o'zbek milliy an'anaviy san'atida gilamdo'zlik, to'quvchilik, kashtachilik va zargarlik sohalarining tutgan o'rniiga yuqori baho berdi.

Mustaqil O'zbekistonda xalq amaliy san'ati an'analarini o'rganish ishiga Fransuz tadqiqotchilari ham jiddiy e'tibor qaratdi. Masalan, Gerald Degeorge, Piyerri Chuvenlar va Frederik Beaupertuis-Bressand tomonidan mustaqillik yillarda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi tadqiq etilib, san'atning naqqoshlik, kashtachilik tarixiga oid ma'lumotlarni umumlashtirdi[16].

Frederik Beaupertuis-Bressand asarida o'zbek milliy hunarmandchiligining keng tarqalgan sohalaridan kulolchilik va kashtachilik haqida gapiriladi. Muallif Buxoro zardo'zligi, Andijon, Urgut va Shahrisabz kashtachiligi, Rishton, Andijon va G'ijduvon kulolchiligi, ularning yutug'i, ustalarining ish jarayoni, san'at buyumini yasash usullari, ishlatilgan naqshlar, bo'yoq berish uslublari, bo'yoqlar tarkibi va ranglar haqida fikrlarni bayon qildi[17].

O'zbek milliy an'anaviy san'atiga bag'ishlangan nashr etilgan asarlar xorijlik tadqiqotchilarni kuchli qiziqtirib kelgan. Nemis tadqiqotchisi Jeanine Elif Dageli izlanishlari bu borda diqqatga sazovordir[18]. Muallif o'zbek hunarmandchiligi risolalari, uning mazmuni, undagi qoidalar, ustoz-shogird an'analar, hunarmandlarning turmush tarzi xaqida ko'plab ma'lumotlarni berishga harakat qildi. Jeanine Elif Dageli ning xizmati shunda ediki, u xorij adabiyotlaridan foydalanilgan holda o'zbek hunarmandchiliga doir asarlarni boshqa davlatlar hunarmandchiligi risolalari bilan taqqosiy tahlil etishga harakat qildi.

Mavzuga oid xorij adabiyotlari tahlili shundan dalolat beradiki, o'zbek xalq amaliy san'ati jahonning qator davlatlari tadqiqotchilari e'tiborini o'ziga jalb etib keldi. Xorij mualliflari

hunarmadnchilikning turli yo‘nalishlarida yaratilgan buyumlarning san’at asar sifatidagi o‘rniga yetarli darajada ta’rif bera olganlar.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, mavzuning tarixshunoslik tahlili shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston janubiy viloyatlari misolida xalq amaliy san’atining mustaqillik yillarda rivojlanishi tarixining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan maxsus ilmiy adabiyot mavjud emas. Ammo O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda boshqa masalalar qatori amaliy san’ati masalasi ham umumiylar tarzda tahlil qilingan.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шокирова С.Н. Социалистическое преобразование ремесленно-кустарного производства в Советском Туркестане – Ташкент: Фан, 1978. – 19 с.
2. Давлатова С.Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 1996.
3. Матбобоев Б.,Майтдинов Г. Аждодларимиз либоси. “Фан ва турмуш” –Т. 1991. №4 18-бет.
4. Ахроров И., Тақинчоқлар таърифи.- “Саодат”. Т.,1997.-№3 27-бет
5. Ашрафий М. Ўрта Осиёда ўрта асрлардаги либослар: тараққиёт босқичлари(VII-XVII асрлар)- “Санъат” Т., 2001. 53-б
6. Таниева Г. Қарши беклиги тарихидан лавҳалар. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2006.
7. Богословская И., Л.Летвеева Тюбетейки Узбекистана XIX –XX веков Т., 2006.
8. Гюль Э. Шахрисабз кашталари. Санъат, Т.,2002., № 1.
9. Баратова Ш, Ўзбек сўзанилари, Санъат, Т., 1998.
10. Абдуллаева Ш. Ўзбекская традиционная вышивка XIX начала XX вв (К проблеме изучения художественных особенностей региональных школ по материалам ГМИРУз): автореф. Дис. Канд.искусст. наук. Т.2001. 24с.
11. Жумаева Қ. XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоронинг анъанавий каштадўзлик санъати: Тарих фанлари.номз.дис. Т.2013- 158 б.
12. Г. Келлер. Frauen kultur in Uzbekistan. – Denzlingen, 2002. –P.288.
13. Б.Волленвэбер, П.Франке Uzbekistan. Land zwischen Orient und Okzident.- Berlin: Wostok, 2007. – P.91.
14. А.У. Попе The carpet making. A history. – A Source of Persian Art. 1967. v. VI. Tehran –London- New-York- Tokyo.
15. В. Маклеод ва Б.Майхев Uzbekistan. The golden road to Samarkand. –Hang Kong: Odyssey, 2008. –P.368.
16. Г.Дегеорге., Чувин . Samarcande Bekhara. Khiva. Paris. Flammarion. 2001-P.230
17. Беаупертус –Bressand F. Samarkand la magifique. Marsel. Georges Naef. 2003. – P. 255.
18. Жеанине Элиф Дагели / Moral, Identitat und religiose Legitimierung in der mittelasiatischen Handwerks-risala. Reichert Verlag Wiesbaden. – Berlin, 2011.-P.333.